
TOSHLOQ TUMANIDA “ENG KITOBXON MAKTAB” LOYIHASI BOSHLANDI

Bugun 2-umumta’lim maktabida “Eng kitobxon maktab” loyihasining tuman bosqichiga bag’ishlangan tadbir bo’lib o’tdi.

Tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda sektor rahbarlari, maktab direktorlari ishtirok etdi.

Ta’kidlanishicha, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to’g’risida”gi Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hokimligi, sektor rahbarlari hamda maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi bilan hamkorligida, Toshloq tumanida “ENG KITOBXON MAKTAB” loyihasi ўтказилади. (https://t.me/toshloq_axborot_xizmati) Loyiha doirasida Toshloq tumanidagi umumta’lim maktablarida ijodiy uchrashuvlar, sayyor kitob savdo-marafonlari 5 fevraldan-9 fevralgacha, har kuni 10 ta maktabda soat 10:00 dan 16:00 gacha tashkil etiladi.

Loyiha yakunida umumiy natijalarga ko’ra, 5 ta naminatsiya b̄yicha g’olib b̄ylgan maktablarga, tashkilotchilar va sektor rahbarlari tomonidan qimmatbaho sovg’alar tantanali ravishda топширилади. (https://t.me/toshloq_axborot_xizmati)

Loyihada qatnashganlar kitob sotib olib uylariga ziyo nur olib kirishdan tashqari, har xil sovg’alar yutish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

2024-01-31 16:56:49